



XALQ DEPUTATLARI QIZILTEPA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr

VII-3-020-5-72-K/24

Qiziltepa tumani

Qiziltepa tumanining 2025-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiysi to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Budget kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikaning 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuna hamda xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Navoiy viloyatining 2025-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-025-5-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq, xalq deputatlari Qiziltepa tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni shuningdek Navoiy viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Navoiy viloyatining 2025-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-025-5-0-K/24-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida” Qonuna (keyingi o‘rinlarda - Qonun deb ataladi) muvofiq, Qiziltepa tumani mahalliy budgetining 2025-yil uchun budget daromadlari 138,6 mlrd. so‘m, xarajatlari 138,6 mlrd. so‘m etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2025-yil uchun Qiziltepa tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2026-2027-yillarga maqsadli prognozi mo‘ljallari **1-ilovaga** muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

2025-yil uchun tuman mahalliy budgeti daromadlari prognozi **2-ilovaga** muvofiq;

2025-yil uchun tuman mahalliy budgetidan birinchi darajali budget mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari **3-ilovaga** muvofiq;

2025-yil uchun tuman budgetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. 2025-yil uchun tuman mahalliy budgetining daromadlari va xarajatlarining prognozlari **5-ilovaga** muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2025-yil uchun tuman budgeti zahira jamg‘armasi hajmlari 2,113 mlrd. so‘m miqdorida belgilansin.

Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari joriy etilganligi hududlarda tegishli tumanlar va shaharlar budgetlarining zaxira jamg‘armalari ushbu mexanizmlar joriy etilgan yildan oldingi yildagi hajmdan kam bo‘lmagan miqdorlarda shakllantiriladi.

2025-yil uchun tuman mahalliy budgetlari aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 913,788 mln. so‘m etib belgilansin.

7. Qonun bilan 2025-yilda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining mahalliy budgetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budget xarajatlarini hududiy budget mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

8. 2025-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budgetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan, jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining kamida 66 foizi (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘ining 98 foizi;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar;

soliqsiz va boshqa daromad to‘lovleri viloyat budgeti ixtiyorida qoldirilsin.

tuman hokimlarining qarorlari asosida sotiladigan davlat mulki obyektlarini sotishdan tushadigan mablag‘lar tegishli ravishda obyekt joylashgan tuman mahalliy budgetiga va viloyat budgetga teng ulushlarda taqsimlanadi.

Qonunga muvofiq viloyat mahalliy budgetiga ajratma qilingan 66 foiz miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlar (*jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari*) Qiziltepa tumani 56 foiz, miqdorida budgetga taqsimlansin (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno).

2025-yilda transfertdan chiqarish uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i bo‘yicha to‘lovni Qiziltepa tumanga 98 foizi miqdorda o‘tkazilsin.

9. Qiziltepa tuman xalq deputatlari Kengashi tomonidan:

- tegishli darajadagi mahalliy budgetlarga ajratiladigan soliqlarni va boshqa turdag'i daromadlarni (shu jumladan ushbu moddaning uchinchi, to'rtinchi va beshinchi qismlarida ko'rsatilgan daromadlarni) taqsimlash;

- daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablag'larning bir qismini tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berilishiga haqliligi;

- xalq deputatlari tuman Kengashi tumanning ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'loving eng kam stavkalariga o'sib boruvchi koeffitsentlarini joriy etishga haqliligi;

Agar qonunchilikda daromadlarning budget darajalari bo'yicha taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo'lsa:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga o'tkazilishi lozim bo'lgan daromadlarning turlari respublika budgetiga o'tkazilishi;

- mahalliy budgetlarga o'tkazilishi lozim bo'lgan daromadlarning turlari tuman budgetiga o'tkazilishi;

- Budget tizimi budgetlariga ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan tushumlarning summalarini qaytarish ularni qaytarish sanasida amalda bo'lgan ajratmalar normativlariga muvofiq tegishli budget tizimi budgetlaridan, bekor qilingan daromad turlari bo'yicha esa respublika budgetidan amalga oshirilishi;

Davlat korxonalari hamda ustav kapitali 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (shu jumladan ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan) 2025-yil 1-iyuliga qadar 2024-yil yakunlari bo'yicha o'z so'f foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividentlar hisoblanadi hamda 2025-yil 1-sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budgetlarga o'tkazilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

10. Tuman hokimining birinchi o'rinnbosari (N.Hayitov), iqtisodiyot va moliya bo'limi, Soliq inspeksiyasi (D.Murodov) hamda mas'ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budgetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budgetining prognoz ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarish;

budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budget intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budgetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining to'liq tushumini ta'minlash;

budget daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

11. Tuman Soliq inspeksiyasi (D. Murodov)ga:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida budgetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirilishini;

barcha soliq turlardan doimiy tahlillar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini hamda ushbu soliq to'lovlarini bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rinishini;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig'inining soliq bazasi oshirilishini;

Kadastr agentligining tuman bo‘limi bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulkulari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarning to‘liq hisoblanishini;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazorati o‘rnatalishini hamda kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazilishini ta’minlash topshirilsin.

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman Soliq inspeksiyasi (D. Murodov):

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirish ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘sishimcha manbalari hisobidan “marksheyderlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

13. Majburiy ijro byurosini Qiziltepa tuman bo‘limi tuman Soliq inspeksiyasi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni ko‘rib borsin.

14. Tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiy lashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini "e-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish choralarini ko‘rsin.

15. Tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

16. Tuman Soliq inspeksiyasi (D.Murodov) tuman hokimligi bilan birgalikda tumandada sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan

holda mazkur iste'mol hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to'liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budgetlarga to'liq undirib olish bo'yicha tizimli ishlarni olib borilishini ta'minlasin.

Bunda, qishoq xo'jaligi korxonalarini tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo'yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilsin.

17. Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budgetning qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida budget qonunchiligiga to'liq rioya etilgan holda Kengash qarori loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budgetning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o'rnatishga, natijalari bo'yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy budget xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishiga hamda ushbu mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas'ul etib belgilansin.

18. Tuman hokimining birinchi o'rribbosari (N. Hayitov), xalq deputatlari tumani Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli tashkilot rahbarlari:

mahalliy budget daromad va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko'rilegan chora-tadbirlar;

ajratilgan budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo'yicha xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

19. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to'lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta'minlasin.

20. Mazkur qaror "Yangi Qiziltepa" gazetasida rasmiy e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

21. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

22. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budgetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklansin.

Sessiyada raislik qiluvchi



BOBOJONOV
ULUG'BEK
RAXIMOVICH

Xalq deputatlari Qiziltepa tumani
 Kengashining
 2024-yil 27-dekabrdagi
 VII-3-020-5-72-K/24 -son qaroriga
 1-ilova

2025-yil uchun Qiziltepa tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2026-2027-yillarga maqsadli prognozi mo‘ljallari

T/r	Ko‘rsatkichlar	2025-yil uchun prognoz	Mo‘jal	
			2026-yil	2027-yil
1	Sanoat maxsulotning o‘sish sura’ti, foizda	105,1	105,5	105,8
2	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sura’ti, foizda	103,5	103,5	103,7
3	Ko‘rsatiladigan xizmatlar o‘sish sur’ati, foizda	114,5	115,1	115,9
4	Qurilish ishlari o‘sish sur’ati, foizda	108,7	108,9	109,2

Xalq deputatlari Qiziltepa tumani
 Kengashining
 2024-yil 27-dekabrdagi
 VII-3-020-5-72-K/24 -son qaroriga
 2-ilova

**2025-yil uchun Qiziltepa tuman mahalliy budgetining daromadlari prognozi
 ko'rsatkichlari**

ming so 'm

T/r	Daromad turlari	Jami
	JAMI	138638940
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	41335280
2	Aksiz solig'i, jami (<i>benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq</i>)	24105060
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6428000
4	Yuridik shaxslar yer solig'i	18257000
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4919600
6	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	1271000
7	Aylanmadan olinadigan soliq	13617000
8	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i	987000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	12800000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	14200000
11	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	719000

Xalq deputatlari Qiziltepa tumani
 Kengashining
 2024-yil 27-dekabrdagi
 VII-3-020-5-72-K/24 -son qaroriga
 3-ilova

**2025-yil uchun Qiziltepa tuman mahalliy budgetidan birinchi darajali
 budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning
 cheklangan miqdorlari**

ming so'm

T/r	Ko'rsatkichlar	Miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	138638940
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
	Tuman va shahar mahalliy budgetlariga transfertlar	
1	Umumiy ta'lim	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	13 098 939
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
2	Maktabgacha ta'lim	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	16589709
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
3	Sog'liqni saqlash	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
4	Madaniyat bo'limi	

	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2496071
	Musiqa va san'at maktablari	4 913 958
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
5	Bolalar va o'smirlar sport maktabi	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	7418916
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
6	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	46200
7	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	55371
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
8	Obodonlashtirish boshqarmasi	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	35664361
	Ichki xo'jalik avtomobil yo'llarini ta'mirlash xarajatlariga	4000000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
	Maxsus texnika sotib olish xarajatlari	2648000
9	Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazlarining saqlash xarajatlari	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	536299
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
10	Hayvon kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xafsizligi davlat markazi	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	803223

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1645000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	Davlat boshqaruv organlarini saqlash	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	
	Tuman hokimligi xarajatlariga	3280712
	Xalq qabulxonasi xarajatlariga	35941
	Hokim yordamchilari xarajatlariga	6240776
	Kengash xarajatlariga	247640
	Xotin qizlar bo‘limi xarajatlariga	2417614
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2371657
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	Yoshlar ishlari agentligi bo‘limi	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	6611755
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1632598
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	
	<i>shu jumladan:</i>	

	joriy xarajatlar	3130464
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17	Zahira jamg‘armasi	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2113016
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	24030867
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19	Mening mактабим jamg‘armasi	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2527854
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20	Axborot kutubxona markazi	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	729999
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Qiziltepa tumani
 Kengashining
 2024-yil 27-dekabrdagi
 VII-3-020-5-72-K/24 -son qaroriga
 4-ilova

2025-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umum davlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari

Foiz hisobida

T /r	Shah ar va tuma nlar nomi	Jismoni y shaxsla rdan olinadig an daroma d solig'i		Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslard an olinadiga n yer solig'i		Suv resurs-laridan foydalan-ganlik uchun soliq	
		M RI	D SB + D SI	M RI	DSB + DSII	M RI	DSB + DSII	M RI	DSB + DSII	MRI	DSB + DSII
1	Qizilt epa tuma ni	0	56	0	98	0	100	0	100	0	100

Xalq deputatlari Qiziltepa tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-020-5-72-K/24 -son qaroriga
5-ilova

**2025-yil uchun Qiziltepa tuman mahalliy budgetining daromadlari va
xarajatlarining prognozlari**

ming so ‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
Qiziltepa tuman	138 638 940	138 638 940